

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O‘ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO‘RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o‘g‘li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA‘SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O‘ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG‘ONIY TA‘LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN‘IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA‘SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> “O‘RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA‘RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA‘RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI”	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUIJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

DYNAMIC ANALYSIS OF SERVICE QUALITY INDICATORS IN THE SERVICE SECTOR OF UZBEKISTAN

Xudoyorov Lochinbek Bahromovich

Independent Researcher at Samarkand State University, PhD

E-mail: lochinbek797@gmail.com

Abstract. This article analyzes the dynamics of service quality indicators in the service sector of Uzbekistan in recent years. The relationship between service quality and economic efficiency is examined based on statistical data. The study provides a dynamic analysis of the share of the service sector in GDP, the level of customer satisfaction, digitalization indicators, and labor productivity. The obtained results substantiate the impact of improving service quality on economic growth and competitiveness.

Keywords: service sector, service quality, dynamic analysis, customer satisfaction, digitalization, economic efficiency.

O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI

Xudoyorov Lochinbek Bahromovich

Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining so'nggi yillardagi dinamikasi tahlil qilinadi. Xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Tadqiqot davomida servis sektorining YAIMdagi ulushi, mijoz qoniqishi darajasi, raqamlashtirish ko'rsatkichlari va mehnat unumdorligi dinamik tahlil qilinadi. Olingan natijalar xizmatlar sifati oshishining iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikka ta'sirini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: servis sohasi, xizmatlar sifati, dinamik tahlil, mijoz qoniqishi, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N15>

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar jarayoni jadallashib, xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishdan yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tarmoqlarga o'tish hamda aholi bandligini ta'minlashda servis sektorining roli tobora ortib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot rivojlanish darajasi oshgani sari xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va sifat talablari ham yuqorilab boradi.

Xizmatlar sifati zamonaviy sharoitda korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar tanlovi kengaygani sari xizmat ko'rsatish jarayonida tezkorlik, ishonchlilik, qulaylik, xavfsizlik va individual yondashuv kabi mezonlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli xizmatlar

sifati nafaqat iste'molchi qoniqishining ko'rsatkichi, balki korxonalar moliyaviy natijalarining barqarorligini ta'minlovchi strategik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari, elektron hukumat tizimining joriy etilishi, moliyaviy va savdo xizmatlarining raqamlashtirilishi servis sohasida sifat ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, bank, transport, turizm, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarida onlayn platformalar, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishi xizmat ko'rsatish jarayonining tezkorligi va shaffofligini oshirmoqda. Bu esa xizmatlar sifatini baholash va monitoring qilishning yangi metodologik yondashuvlarini talab etadi.

Shu bilan birga, xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishini tizimli ravishda o'rganish zarurati mavjud. Xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, sifat ko'rsatkichlarining vaqt davomida qanday o'zgarayotganini baholash hamda ularning raqobatbardoshlikka ta'sirini asoslash ilmiy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, servis sektorining YAIMdagi ulushi ortib borayotgan sharoitda sifat omilining iqtisodiy natijalarga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining 2018-2024-yillardagi dinamikasini tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liqligini aniqlash hamda sifatni oshirishning asosiy omillarini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida servis sektorining rivojlanish tendensiyalari, raqamlashtirish darajasi, mijoz qoniqishi ko'rsatkichlari va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganiladi.

Shunday qilib, xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining dinamik tahlili nafaqat alohida korxonalar darajasida, balki tarmoq va milliy iqtisodiyot miqyosida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot servis sektorida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Avvalo, xizmatlar sifati tushunchasining nazariy asoslari Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan SERVQUAL modeli bilan bog'liq. Ular xizmat sifati iste'molchi kutilmalari va real qabul qilingan natija o'rtasidagi tafovut asosida baholanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mazkur yondashuv sifat ko'rsatkichlarini o'lchashda ko'p mezonli tizimdan foydalanishni taklif etadi. Bu model dinamik tahlil uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, chunki sifat ko'rsatkichlarining vaqt davomida o'zgarishi iste'molchi kutilmalari bilan bog'liq holda baholanadi.

Raqobat ustunligi nuqtai nazaridan Michael Porter xizmatlar sifati korxonaning differensiallashuv strategiyasida asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yuqori sifat barqaror raqobat ustunligini yaratadi va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining dinamik o'sishi bevosita bozor ulushi va daromadlar o'sishi bilan bog'liqligini tushuntiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining o'zgarishini tahlil qilishda Erik Brynjolfsson tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. U raqamli texnologiyalar mehnat unumdorligi va xizmat ko'rsatish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. Uning ilmiy xulosalariga ko'ra, raqamlashtirish jarayonlari xizmat sifati indikatorlarining dinamik o'sishiga olib keladi, ayniqsa tezkorlik va shaffoflik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli natija beradi.

O'zbekiston sharoitida xizmatlar sifati va uning iqtisodiy natijadorlik bilan bog'liqligi masalalari mahalliy olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Xususan, Said Gulyamov raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sifati ko'rsatkichlari innovatsion rivojlanishning muhim omili ekanini ta'kidlaydi. U raqamlashtirish jarayonlari xizmat ko'rsatish samaradorligi va mijoz qoniqishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi.

Bakhodir Khodiev milliy iqtisodiyotda tarkibiy transformatsiya jarayonlarini tahlil qilgan ekan, servis sektorining YAIMdagi ulushi ortib borayotganini qayd etadi. Uning fikricha, xizmatlar sifati oshishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Bu yondashuv xizmatlar sifati ko'rsatkichlarini makroiqtisodiy darajada dinamik tahlil qilish zaruratini asoslaydi.

Shuningdek, Botir Rasulov xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillarini tadqiq etib, sifat ko'rsatkichlari va moliyaviy natijalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. U xizmatlar sifati dinamikasini baholashda mijoz qoniqishi, rentabellik va mehnat unumdorligi kabi indikatorlardan foydalanishni taklif etadi.


Mazkur tadqiqotda O'zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining dinamikasini o'rganish uchun tizimli va statistik yondashuvdan foydalanildi. Dastlab nazariy tahlil usuli yordamida xizmatlar sifati bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda asosiy indikatorlar aniqlashtirildi. Keyingi bosqichda 2018-2024-yillar kesimida servis sohasining asosiy ko'rsatkichlari (YaIMdagi ulushi, mijoz qoniqishi darajasi, raqamlashtirish ko'rsatkichi, mehnat unumdorligi) dinamik qatorlar usuli asosida tahlil qilindi. Solishtirma va indeks usullari orqali xizmatlar sifati hamda iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Olingan natijalar asosida xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari va ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri aniqlashtirildi.

Natijalar va muhokama. O'zbekiston iqtisodiyotida servis sohasi so'nggi yillarda tarkibiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, bandlikni kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish jarayonida xizmatlar sektori yetakchi o'rin egallay boshladi. Bunday sharoitda nafaqat xizmatlar hajmi, balki ularning sifati ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli transformatsiya, moliyaviy xizmatlarning modernizatsiyasi, turizm va logistika infratuzilmasining rivojlanishi xizmatlar ko'rsatish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga, xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta'sirini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur sharoitda servis sohasining YaIMdagi ulushi, raqamlashtirish darajasi va mijoz qoniqishi kabi indikatorlarni dinamik tahlil qilish iqtisodiy siyosat va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.


Rasm ma'lumotlari servis sektorida 2019-2024-yillar davomida barqaror va tezlashuvchi o'sish tendensiyasi shakllanganini ko'rsatadi. 2020-yilda o'sish sur'atining pasayishi tashqi iqtisodiy omillar ta'siri bilan izohlanadi. Biroq 2021-yildan boshlab sektorning real o'sish sur'ati izchil ravishda yuqorilab borgan va 2024-yilda ikki xonali ko'rsatkichga yetgan.



1-rasm. Servis sohasining real o'sish sur'ati (%)

Dinamik qatorlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'sish sur'atining barqarorlashuvi xizmatlar sifatining yaxshilanishi, raqamlashtirish jarayonlari va ichki talabning kengayishi bilan bog'liq. Real o'sishning yuqori darajada saqlanishi servis sektorida taklif etilayotgan xizmatlarning bozordagi talabga moslashganini va sifat ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikaga ega ekanini bildiradi.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, real o'sish sur'atining barqarorligi sektorning iqtisodiy tizimdagi rolini mustahkamlaydi hamda xizmatlar sifati iqtisodiy barqarorlik omiliga aylanganini tasdiqlaydi.




2-rasm. Elektron (onlayn) xizmatlar ulushi (%)

2-rasmda elektron xizmatlar ulushining izchil o'sib borishi kuzatiladi. 2019-yildagi past darajadan boshlab 2024-yilgacha uch barobarga yaqin o'sish qayd etilgan. Bu servis sohasining raqamli transformatsiyasi chuqurlashganini ko'rsatadi.

Elektron xizmatlar ulushining ortishi quyidagi sifat omillariga ta'sir ko'rsatadi:

- xizmat ko'rsatish tezkorligi oshadi;
- inson omili bilan bog'liq xatolar kamayadi;
- xizmat ko'rsatish jarayoni shaffoflashadi;
- mijozlar uchun qulaylik darajasi ortadi.

Shunday qilib, elektron xizmatlar ulushi xizmatlar sifati indikatorining zamonaviy, obyektiv o'lchov mezonini sifatida qaraladi. Mazkur ko'rsatkichning dinamik o'sishi sifat menejmenti tizimining raqamli asosga o'tayotganini ko'rsatadi.



3-rasm. Bir xodimga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (mln. so'm)


Rasm ma'lumotlariga ko'ra, bir xodimga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 2019-2024-yillarda sezilarli oshgan. Bu mehnat unumdorligining izchil o'sishini anglatadi.

Unumdorlikning oshishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- xizmat jarayonlarining avtomatlashtirilishi;
- raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi;
- sifat monitoringi va KPI tizimining kuchayishi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni aks ettiradi. Unumdorlik o'sishi xizmat ko'rsatish sifati barqarorlashganini va operatsion xarajatlar optimallashtirilganini bildiradi.

Rasmda real o'sish sur'ati, elektron xizmatlar ulushi va mehnat unumdorligi parallel ravishda o'sib borayotgani tasvirlangan. Grafik tahlili uchala ko'rsatkich o'rtasida musbat dinamik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.



4-rasm. Servis sohasida sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarining dinamik o'sish modeli

Raqamlashtirish darajasi oshishi → mehnat unumdorligi oshishi → real iqtisodiy o'sish sur'ati tezlashishi zanjiri shakllangan.

Vizual tahlil shuni ko'rsatadiki, 2021-yildan boshlab elektron xizmatlar ulushi keskin o'sgan davrda mehnat unumdorligi ham yuqori sur'atda oshgan. Bu esa xizmat sifati modernizatsiyasi va iqtisodiy natijadorlik o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Grafik dinamikasi xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining makroiqtisodiy natijalarga uzluksiz va tizimli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining dinamik tahlili shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda sektor barqaror va izchil rivojlanish bosqichiga o'tgan. Servis sohasining real o'sish sur'atlari, elektron xizmatlar ulushining kengayishi hamda mehnat unumdorligining oshishi xizmatlar sifati ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikaga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya jarayonlari xizmatlar sifati oshishining asosiy drayveri bo'lib xizmat qilmoqda. Elektron xizmatlar ulushining ortishi xizmat ko'rsatish tezkorligi, shaffofligi va qulayligini yaxshilagan, bu esa mijozlar talabining kengayishiga hamda sektorning iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga olib kelgan.

Mehnat unumdorligining izchil o'sishi xizmat ko'rsatish jarayonlarining optimallashtirilganini va boshqaruv samaradorligining kuchayganini anglatadi. Bu esa xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida bevosita va musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekiston servis sohasida xizmatlar sifati ko'rsatkichlari barqaror ijobiy dinamikaga ega bo'lib, ularning rivojlanishi iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida xizmatlar sifati monitoringini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish hamda kadrlar

salohiyatini oshirish sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Parasuraman., Valarie Zeithaml., Leonard Berry. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. – 1988. – Vol. 64(1).
2. Michael Porter. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
3. Erik Brynjolfsson., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
4. W. Edwards Deming. Out of the Crisis. – MIT Press, 1986.
5. ISO 9001:2015. Quality Management Systems – Requirements. – International Organization for Standardization, 2015.
6. Said Gulyamov. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
7. Bakhodir Khodiev. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish muammolari. – Toshkent: Fan, 2019.
8. Botir Rasulov. Xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2018–2024-yillar). – Toshkent, 2025.
10. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2023.
11. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. – Washington DC, 2016.
12. OECD. Digital Economy Outlook. – Paris, 2023.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).